

KASBIY STANDART

Raqs san'ati faoliyati

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Raqs san'ati faoliyati san'at va madaniyat sohasi hisoblanadi. U madaniy-ma'rifiy muassasalar, ta'lim muassasalari, ijtimoiy va sport tashkilotlari hamda xususiy studiyalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislariga tatbiq qilinadi. Ushbu kasbiy standart aynan shu yo'nalishdagi malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini baholashda me'yoriy-metodik asos sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur standart madaniyat va san'at muassasalarida kadrlar siyosati, ijodiy jamoalarning tashkil etilishi va boshqarilishi, xalq merosini saqlash va ommalashtirish, shuningdek, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish jarayonlarida muhim o'rin tutadi.

Bu standart ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari yaratishda, kasbiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yishda, hamda folklor, etnografiya va xalq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi faoliyatni tubdan rivojlantirishda yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ansambl – milliy kuy-qo'shiqlar, raqslar va marosimiy san'at turlarini uyg'unlashtirib ijro etuvchi, xalqning madaniy merosini sahnada zamonaviy san'at talablariga uyg'un holda namoyon etuvchi ijodiy jamoa;

bilim– kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

bolalar teatr studiyasi – yosh avlodda sahna san'atiga muhabbat uyg'otish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, ijodiy fikrlash va obrazli ifoda ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli mashg'ulotlar jarayoni;

dekorativ-amaliy va tasviriy san'at studiyasi – milliy amaliy bezak san'atini, qo'l mehnati va tasviriy san'at an'analarini o'rgatish, yoshlarni milliy madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ijodkorlik va estetik tafakkurni rivojlantiruvchi ijodiy muhit;

folklor – xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasini, urf-odat va an'analarini, hayot tarzini aks ettiruvchi og'zaki va amaliy ijod namunalari majmuasi bo'lib, u

milliy ma'naviyatning ma'naviy qudrati va estetik jihatdan tarbiyaviy ahamiyatini ifoda etadi;

folklor-etnografik ansambl – xalq an'anaviy marosimlarini, urf-odat va turmush tarzini sahnaviy vositalar yordamida qayta tiklash, madaniy merosni hayotga yaqin holda namoyon qilish orqali milliy o'zlikni mustahkamlovchi ijodiy yo'nalish;

ijrochi – ashula aytuvchi yoki biror muzika asbobida chaladigan musiqachi;

improvizator — oldindan tayyorgarliksiz muzika asarini yaratuvchi, badiha tarzida ijro etish;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'RQ-668-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (53, 61 va 78-79-moddalar);

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (113, 118, 185 va 209-417-moddalar);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4584-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son-Qarori (IFUT-2.1).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Raqs san'ati faoliyati	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Raqs san'ati sohasidagi mutaxassislarning asosiy maqsadi – raqsni ijodiy va texnik jihatdan yuqori saviyada hamda samarali tarzda namoyish etish, raqs bilim va ko'nikmalarini tarbiyalash va ommalashtirish, shuningdek, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishdir	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	S seksiyasi-San'at, sport va dam olish 90-Badiiy ijod va ijro san'ati sohasidagi faoliyat 90.1-Badiiy ijod sohasidagi faoliyat 90.13- Boshqa san'at ijodkorligi sohasidagi faoliyat 90.13.0- Boshqa san'at ijodkorligi sohasidagi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	raqs san'ati sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari, malakalari va ish vazifalarini belgilaydi. U xoreograflar, raqs ansambli va estrada raqs artistlari, musiqa va san'at maktablari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xoreograflarini qamrab oladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	Malaka darajasi:
		26531004-Xoreograf	3-5
		34350103-Xalq raqs ansambli artisti	3-5
		34350104-Xalq raqslarini sahnalashtiruvchisi	3-5
		34350036-Havaskorlik raqs (teatr) jamoasi rahbari	5
		34350029-Estrada raqs artisti	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	26531004-Xoreograf	A1.3	Oddiy raqs harakatlarini bajarish va ko'rsatish	A1.01.3	Oddiy sahna yoki guruh raqslarini mashq qilish
				A1.02.3	Raqs texnikasini va ritmni mustahkamlash
				A1.03.3	Kichik guruhlar bilan mashqlarni tashkil etish
		A2.3	Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	A2.01.3	Mashg'ulotlar uchun maydon va jihozlarni tayyorlash
				A2.02.3	Oddiy raqs kombinatsiyalarini tayyorlash va qayta ishlash
		A3.3	Ijodiy yordam va sahna jarayonlarida ishtirok etish	A3.01.3	Bosh xoreograf yoki murabbiy ko'rsatmalariga muvofiq sahnada ishlash
				A3.02.3	Kostyumlar, rekvizitlar va sahna elementlarini oddiy darajada ishlatish
		A4.4	Raqs dasturlarini tayyorlash va sahnalashtirish	A4.01.4	Turli janrdagi raqslarni mustaqil tanlash va sahnaga moslashtirish
				A4.02.4	Guruh raqschilari uchun mashq va repertuar dasturlarini ishlab chiqish
				A4.03.4	Oddiy sahna effektlari va kostyumlarni tanlashda ishtirok etish
		A5.4	Guruh raqschilarini tayyorlash va boshqarish	A5.01.4	Mashg'ulotlarni mustaqil rejalashtirish va o'tkazish
				A5.02.4	Raqs texnikasi va ifoda mahoratini rivojlantirish uchun mashqlar berish
		A6.4	Ijodiy jarayonlarda ishtirok etish va mas'uliyatni oshirish	A5.03.4	Raqschilar faoliyatini kuzatish va kichik guruhlarni boshqarish
				A6.01.4	Konsert yoki chiqish dasturlarida sahna ishlarini muvofiqlashtirish
				A6.02.4	Loyihani sifatli va vaqtida bajarilishini ta'minlash
		A7.5	Murakkab raqs dasturlarini yaratish va sahnalashtirish	A6.03.4	Kichik ijodiy guruhlar bilan hamkorlik qilish
				A7.01.5	Turli janr va uslublardagi raqslarni professional darajada tayyorlash
		A7.5	Murakkab raqs dasturlarini yaratish va sahnalashtirish	A7.02.5	Katta guruhlar yoki ansambllar uchun repertuar dasturlarini ishlab chiqish

		A8.5	Ijodiy guruhlarni boshqarish va murabbiylik qilish	A7.03.5	Sahna effektlari, kostyumlar va rekvizitlarni ijodiy ravishda uyg'unlashtirish
				A8.01.5	Raqschilarni individual va guruh bo'yicha professional tayyorlash
				A8.02.5	Yirik ijodiy guruhlar ishini rejalashtirish, boshqarish va baholash
		A9.5	Ijodiy loyihalarni boshqarish va nazorat qilish	A8.03.5	Mentorlik va malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish
				A9.01.5	Konsert, festival va boshqa tadbirlar uchun professional sahna loyihalarini amalga oshirish
				A9.02.5	Loyihaning sifat va muddatga muvofiqligini ta'minlash
				A9.03.5	Yangi ijodiy g'oyalarni ishlab chiqish va joriy etish
		B1.3	Ansambl ichida oddiy raqs kompozitsiyalarini bajarish	B1.01.3	Ansambl ichidagi oddiy raqs qismlarini murabbiy ko'rsatmalariga binoan bajarish
				B1.02.3	Ritm va musiqiy tempga mos keladigan harakatlarni aniq ijro etish
				B1.03.3	Sahna makonida o'z pozitsiyasini saqlash va belgilangan chiziqlar bo'yicha harakat qilish
2	34350103-Xalq raqs ansambli artisti	B2.3	Murabbiy yoki badiiy rahbar ko'rsatmalariga binoan yangi raqs qadamlarini o'rganish	B2.01.3	Yangi raqs qadamlarini ko'rsatmalarga binoan eslab olish va takrorlash
				B2.02.3	Murabbiy tomonidan berilgan sahna kombinatsiyalarini xotirada saqlash va sahnada qayta ijro etish
				B2.03.3	Oddiy sahna variantlarini mustaqil ravishda mashq qilish va yaxshilash
		B3.3	Jismoniy mashqlar va asosiy texnika mashqlarini muntazam bajarish	B3.01.3	Jismoniy mashqlar, bo'g'imlar va moslashuv mashqlarini bajarish
				B3.02.3	Oddiy texnik mashqlar yordamida raqs texnikasini rivojlantirish
				B3.03.3	Ovoz va nafas mashqlarini bajarib sahnadagi chidamlilikni oshirish

		B4.4	Ansambldagi bir nechta raqs qismlarini mustaqil va aniq bajarish	B4.01.4	Bir nechta raqs qismlarini ketma-ket va xatoliksiz bajarish
				B4.02.4	Sahna harakatlarini sahna makoniga moslashtirish va sahna ritmini saqlash
				B4.03.4	Harakatlarni badiiy ifoda bilan boyitish va sahnada o'zini aniq ko'rsatish
		B5.4	Raqs guruhidagi boshqa artistlar bilan ritm va koordinatsiya bo'yicha uyg'unlashish	B5.01.4	Guruhdagi boshqa raqqoslar bilan ritm va harakatlarni uyg'unlashtirish
				B5.02.4	Birgalikdagi sahna kombinatsiyalarida boshqa artistlarga moslashish
				B5.03.4	Ansambl ichida koordinatsiya va sahna tartibini saqlash
		B6.4	Sahna ijrosi va harakatlar bo'yicha kichik takliflar berish, badiiy yechimlarni amalga oshirish	B6.01.4	Sahna harakatlarining badiiy ifodasini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish
				B6.02.4	Raqs kompozitsiyalaridagi kichik o'zgarishlar va variantlarni sinab ko'rish
				B6.03.4	Sahna ijrosiga yangi elementlar qo'shish va murabbiy bilan muvofiqlashtirish
		B7.5	Kichik guruh yoki bo'limni sahnada boshqarish, sahna tartibini nazorat qilish	B7.01.5	Kichik guruh yoki bo'limni sahnada boshqarish va harakatlarni tartibga solish
				B7.02.5	Sahna ijrosi davomida xatoliklarni aniqlash va tuzatish
				B7.03.5	Ansambl a'zolarining sahna tayyorgarligini nazorat qilish va rag'batlantirish
		B8.5	Yangi raqs qismlarini o'rganish, sahna kompozitsiyalarini sozlash va murabbiy bilan ishlash	B8.01.5	Yangi raqs qismlarini o'rganish va sahnaga moslashtirish.
				B8.02.5	Murabbiy bilan birga sahna kompozitsiyasining badiiy va texnik tafsilotlarini aniqlash
				B8.03.5	Raqs sahnasi uchun kiyim, rekvizit va sahna makonini optimallashtirishda maslahat berish.
		B9.5	Boshlang'ich va o'rta darajadagi raqqoslarni sahna texnikasi va ijrosiga o'rgatish	B9.01.5	Boshlang'ich va o'rta darajadagi raqqoslarga sahna texnikasini o'rgatish
				B9.02.5	Raqs kombinatsiyalarini mashq qilish jarayonida to'g'ri bajarilishini nazorat qilish

				B9.03.5	Yangi artistlarni sahnada mustaqil ishlashga tayyorlash va ularni rivojlantirish
3	34350104-Xalq raqslarini sahnalashtiruvchi	D1.3	Xalq raqslari elementlarini o'rganish va ijro texnikasiga tayyorlanish	D1.01.3	Raqs elementlari, qadamlari va qo'l harakatlarining asosiy uslublarini o'rganish
				D1.02.3	Jismoniy tayyorgarlik mashqlari va mushaklarni qizitish amallarini bajarish.
				D1.03.3	Ansambl bilan bir vaqtda harakatlanish va ritmni to'g'ri ushlab borish
		D2.3	Sahnadagi ijro jarayonida rejissyor-xoreograf ko'rsatmalarini bajarish	D2.01.3	Rejissyor tomonidan berilgan harakat, joylashuv va kompozitsiya talablariga rioya qilish
				D2.02.3	Guruh bilan uyg'un harakatlanish va sahnadagi yo'nalishlarni aniq bajarish
				D2.03.3	Libos va rekvizitlardan xavfsiz va to'g'ri foydalanish
		D3.3	Xalq raqslari ijrosini amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlash	D3.01.3	Raqs kompozitsiyasi elementlarini takrorlash va bosqichma-bosqich yod olish
				D3.02.3	Ovoz yoki jonli musiqa bilan uyg'unlikni ta'minlash
				D3.03.3	Harakatlarda obraz, his-tuyg'u va sahnaviy ifodani shakllantirish
		D4.4	Xalq raqslarini sahnaviy kompozitsiya sifatida tayyorlashda ishtirok etish	D4.01.4	Raqs qoliplari va uslubiy elementlardan foydalanib kompozitsiya yaratishda yordam berish
				D4.02.4	Raqschilar harakatini muvofiqlashtirish va sahnadagi joylashuvni rejalashtirish
				D4.03.4	Rejissyor-xoreograf bilan birga raqs partiyalarini sozlash
		D5.4	Raqs elementlarini boshqa ijrochilarga o'rgatish va mashg'ulotlarni tashkil etish	D5.01.4	Qadamlar, qo'l-oyoq harakatlari, ritm va plastika bo'yicha dars berish
				D5.02.4	Raqsn qismlarga ajratib, texnika va mazmunini tushuntirish
				D5.03.4	Ijrochilarning xatolarini aniqlash va tuzatish bo'yicha ko'rsatmalar berish
		D6.4	Sahna ko'rinishi, libos va rekvizitlar bilan ishlashni tashkil etish	D6.01.4	Raqs mavzusiga mos libos va aksessuarlarni tanlash jarayonida ishtirok etish
				D6.02.4	Rekvizitlardan estetik va xavfsiz foydalanishni yo'lga qo'yish

		D7.5	Xalq raqslarini sahnalashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish	D6.03.4	Sahna harakat yo'nalishlari, kirish–chiqishlar va dinamikani rejalashtirish
				D7.01.5	Raqs g'oyasi, syujeti, obrazlari va badiiy yechimlarini belgilash
				D7.02.5	Musika, harakat, libos va sahna dizaynining umumiy konsepsiyasini yaratish
		D8.5	Raqs kompozitsiyasini to'liq rejissyor-xoreografik ishlanma sifatida yaratish	D7.03.5	Milliy raqs maktabi uslublarini tanlash va kreativ yechimlar ishlab chiqish
				D8.01.5	Xoreografik partiyalar, guruh harakatlari va ritmik tuzilmani rejalashtirish
				D8.02.5	Raqschilarga texnika, ekspressiya va sahnaviy obraz bo'yicha talablar qo'yish
		D9.5	Sahna qo'yilmasining badiiy va texnik uyg'unligini ta'minlash	D8.03.5	Repetitsiya jarayonini boshqarish va badiiy sifati uchun mas'ul bo'lish
				D9.01.5	Libos, yoritish, musiqa va dekoratsiyaning bir-biriga mosligini nazorat qilish
				D9.02.5	Sahnadagi harakatlar xavfsizligi va professional talablarni bajarish
		E1.5	Raqs (yoki teatr) jamoasi ijodiy faoliyatini rejalashtirish va boshqarish	D9.03.5	Tomoshabin uchun ta'sirchan badiiy ko'rinish yaratishni tashkil etish
				E1.01.5	Jamoaning yillik ijodiy rejasi, repertuar siyosati va ijro dasturlarini shakllantirish
				E1.02.5	Asarlarni tanlash, sahna ko'rinishlarini badiiy-g'oyaviy konsept asosida loyihalash
4	34350036- Havaskorlik raqs (teatr) jamoasi rahbari	E2.5	Raqs qo'shiqlari va sahna ko'rinishlarini o'rgatish hamda ijrochilar mahoratini rivojlantirish	E1.03.5	Mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish va ijodiy intizomni ta'minlash
				E2.01.5	Raqs texnikasi, sahna madaniyati, plastika va ritm bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish
				E2.02.5	Yangi raqs kompozitsiyalarini bosqichma-bosqich o'rgatish
				E2.03.5	Jamoa a'zolarining ijrochilik salohiyatini baholash va individual rivojlanish bo'yicha tavsiyalar berish

5	34350029- Estrada raqs artisti	E3.5	Madaniy tadbirlar, konsertlar va chiqishlarni tashkil etish hamda jamoani namoyish etish	E3.01.5	Konsert, ko'rik-tanlov, festivallar uchun sahna chiqishlarini tayyorlash va rejalashtirish
				E3.02.5	Jamoaning tashqi hamkorlar, madaniyat muassasalari va tashkilotlar bilan aloqalarini yo'lga qo'yish
				E3.03.5	Sahna liboslari, rekvizitlar, texnik jihozlar bilan ta'minlanganligini nazorat qilish va chiqish jarayonini boshqarish
		F1.5	Estrada raqs ijrochiligini badiiy-talab darajasida bajarish	F1.01.5	Raqs texnikasi, plastika, dinamika va sahna harakatlarini yuqori darajada ijro etish
				F1.02.5	Musiqi ritmi, tempi va kayfiyatiga mos holda raqs kompozitsiyasini badiiy ifodalash
				F1.03.5	Solo, duet yoki guruh shaklidagi chiqishlarda sahna madaniyati va ekspressiyani namoyon etish
		F2.5	Raqs kompozitsiyalarini sahnaga tayyorlash va repetitsiya jarayonlarida ishtirok etish	F2.01.5	Xoreograf ko'rsatmalariga muvofiq raqs elementlarini o'rganish va takomillashtirish
				F2.02.5	Repetitsiya jarayonida harakatlar uyg'unligini, aniq ritmni va dramaturgik izchillikni saqlash
				F2.03.5	Sahnaga chiqish oldidan texnik tayyorgarlik, jamoa bilan muvofiqlik va sinxronlikni ta'minlash
		F3.5	Sahnadagi obrazni yaratish va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish	F3.01.5	Har bir chiqish uchun mos obraz, xarakter va mimik ifodalar tizimini ishlab chiqish
				F3.02.5	Kostyum, grim va rekvizitlar bilan ishlash orqali obrazning badiiy yaxlitligini ta'minlash
				F3.03.5	O'z ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, yangi uslublar, shakllar va raqs texnikalarini o'zlashtirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Xoreograf
Mashg'ulot nomining kodi:	26531
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3-5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3-4-5-daraja uchun ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: Ishga kirish uchun huquqiy asos mavjud bo'lishi kerak; Jins cheklovi yo'q; Ish boshlashdan avval nomzod dastlabki tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tishi va sog'lig'i kasb xususiyatiga mos kelishi; Nomzod jismoniy bardam, ruhiy barqaror, stress holatlariga chidamli va uzoq vaqt davomida ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish; Mashg'ulotlar va sahnaviy tayyorgarlik jarayonida katta jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, turli yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lish. Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalariga ega bo'lish;

	- Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	3-daraja boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'lim; 4-daraja o'rta professional ta'lim, umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim; 5-daraja o'rta maxsus professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Xizmatchi mutaxassis Xoreograf	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Raqs ansambli artisti
	5	Xalq raqslarini sahnalashtiruvchi
	6	Teatr rejissyori / sahna rejissyori
	6	Kostyumlar rassomi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Oddiy raqs harakatlarini bajarish va ko'rsatish	A1.01.3- Oddiy sahna yoki guruh raqslarini mashq qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Oddiy raqs harakatlarini musiqaga mos ravishda ritmik va aniq bajarish
		2. Raqs kombinatsiyalarini guruh bilan bir maromda takrorlab mashq qilish
		3. Ustoz yoki katta xoreograf ko'rsatmalariga muvofiq harakatlarni to'g'rilab moslashtirish
		4. Sahna joylashuvi, masofa va yo'nalishlarga rioya qilgan holda mashq bajarish
		5. Oddiy raqs elementlarini boshlang'ich o'rganuvchilarga amaliy ko'rsatib berish
		Ko'nikma:
		Oddiy raqs harakatlarini aniq va to'g'ri bajarish
		Musiqaga mos ritmni sezish va harakatga qo'llash
		Guruh bilan bir xil maromda raqs kombinatsiyalarini bajarish
		O'qituvchi ko'rsatmalariga tez moslashish va harakatni to'g'rilash

		Oddiy raqs elementlarini boshlang'ich darajadagi raqqoslarga ko'rsatib berish
		Bilim:
		Raqsning asosiy texnik elementlari
		Ritm va musiqani eshitish asoslari
		Sahna madaniyati asoslari
		Guruhda ishlash qoidalar
		Tana holatini boshqarish va xavfsiz mashq qilish
	A1.02.3- Raqs texnikasini va ritmni mustahkamlash	Mehnat harakatlari:
		1. Raqs texnikasining asosiy elementlarini sekin va aniq takrorlab bajarish
		2. Musiqadagi temp va ritmga mos ravishda harakatlarni bosqichma-bosqich tezlashtirib mashq qilish
		3. Tana muvozanatini mustahkamlash uchun asosiy mashqlarni muntazam bajarish
		4. Murakkablashmagan kombinatsiyalarni ritmga mos ravishda ketma-ketlikda bajarish
		5. Mashq davomida tovush signallari yoki metronomga mos ravishda ritmni nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Oddiy texnik harakatlarni to'g'ri va aniq bajarish ko'nikmasi
		Ritmning o'zgarishlarga mos ravishda harakatni boshqarish
		Musiqani eshitib tempni ushlash va harakatga qo'llash
		Muvozanatni boshqarish va tana holatini barqaror ushlab turish
		Metronom yoki ritmik signallar bo'yicha mashq bajarish
		Bilim:
		Raqs texnikasining asosiy elementlari
		Ritm va temp tushunchalari
		Tananing markaz balansi va muvozanatni ushlash asoslari.
		Mashq jarayonida jarohatlardan saqlanish bo'yicha boshlang'ich qoidalar
		Metronom yoki ritmik signallardan foydalanish asoslari
	A1.03.3- Kichik guruhlar bilan mashqlarni tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. Guruh a'zolarini mashg'ulot maydonida to'g'ri joylashtirish va moslashuvini ta'minlash
		2. Mashg'ulotlar dasturini bosqichma-bosqich rejalashtirish va guruhga tushuntirish
		3. Har bir ishtirokchining texnika va ritm bo'yicha bajarilishini kuzatish va to'g'rilash

		4. Mashg'ulot davomida guruhning bir maromda ishlashini nazorat qilish
		5. Kichik guruh a'zolarini rag'batlantirish va mashqlar davomida motivatsiyani saqlash
		Ko'nikma:
		Kichik guruh mashg'ulotlarini mustaqil tashkil etish
		Guruh a'zolarining texnika va ritmini kuzatib, tuzatish
		Mashg'ulot rejasini bosqichma-bosqich bajarishga rioya qilish
		Guruhni rag'batlantirish va motivatsiyani saqlash
		Sog'liq va xavfsizlik qoidalarini mashg'ulot davomida tatbiq etish
		Bilim:
		Guruh bilan ishlash asoslari
		Raqs texnikasi va ritmi
		Mashg'ulotlarni rejalashtirish prinsiplari
		Motivatsiya va rag'batlantirish asoslari
		Sog'liq va xavfsizlik qoidalarini
A2.3- Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish	Mas'uliyat mustaqillik va	1. Mashg'ulotlar va sahna chiqishlarida belgilangan harakat va kombinatsiyalarni to'liq bajarish va intizomni saqlashga mas'uliyat
		2. Raqs texnikasi, ritm va guruh bilan uyg'un ishlashni nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarish orqali mustaqil harakat qilish
		3. Kichik guruh mashg'ulotlarini tashkil etish, reja bo'yicha ishlash va guruh motivatsiyasini saqlash uchun mas'uliyatli va mustaqil bo'lish
	A2.01.3- Mashg'ulotlar uchun maydon va jihozlarni tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Mashg'ulot maydonini tozalash va xavfsiz ishlash uchun tayyorlash
		2. Mashg'ulot uchun zarur jihoz va rekvizitlarni joylashtirish va tekshirish
		3. Mashg'ulot davomida ishlatiladigan musiqa va metronom jihozlarni tayyorlash
		4. Maydon va jihozlarning guruh a'zolari uchun qulayligini ta'minlash
		5. Mashg'ulot boshlanishidan oldin barcha jihoz va materiallarning ish holatini tekshirish
		Ko'nikma:
		Maydonni xavfsiz va tez tayyorlash
		Jihoz va rekvizitlarni to'g'ri joylashtirish va ishlash holatini tekshirish
		Musiqa va metronomdan foydalanish
		Guruh a'zolari uchun qulay sharoit yaratish va joylashtirish
		Mashg'ulot boshlanishidan oldin barcha materiallarni nazorat qilish

		Bilim: Mashg'ulot maydonini tayyorlash va xavfsizlik qoidalari Jihozlar va rekvizitlar ishlash prinsiplari Musiq va texnik vositalardan foydalanish asoslari Guruh a'zolari uchun qulay sharoit yaratish qoidalari Mashg'ulot boshlanishi oldidan nazorat qilish va muammolarni aniqlash yo'llari
	A2.02.3- Oddiy raqs kombinatsiyalarini tayyorlash va qayta ishlash	Mehnat harakatlari: 1. Oddiy raqs kombinatsiyalarini sahnaga moslab bo'lib-bo'lib mashq qilish 2. Raqs elementlarini ketma-ketlikda takrorlab, texnikani mustahkamlash 3. Har bir kombinatsiyani temp va ritmga moslashtirib qayta ishlash 4. Murakkab bo'lmagan kombinatsiyalarni kichik bo'limlarga ajratib mashq qilish 5. Mashg'ulot davomida guruh a'zolarining xatolarini aniqlab, tuzatishga yordam berish Ko'nikma: Oddiy raqs kombinatsiyalarini sahnada to'g'ri bajarish Harakatlarning texnik aniqligi va barqarorligini ta'minlash Ritm va tempni musiqaga moslashtirish Guruh bilan bir maromda kombinatsiyalarni bajarish Xatolarni aniqlash va tuzatishda yordam berish Bilim: Oddiy raqs kombinatsiyalarining tuzilishi va sahna bo'yicha joylashuvi Raqs texnikasi va harakat ketma-ketligi asoslari Ritm, tempo va musiqiy urg'u nazariyasi Kichik guruh bilan ishlash tamoyillari Xatolarni aniqlash va tuzatish metodikasi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Mashg'ulot maydoni va jihozlarni xavfsiz va tayyor holatda ta'minlash uchun mas'uliyat 2. Oddiy raqs kombinatsiyalarini sahnaga moslab tayyorlash va qayta ishlash jarayonida mustaqil harakat qilish 3. Guruh a'zolari uchun qulay sharoit yaratish va mashg'ulot rejasini bajarish uchun mas'uliyat
A3.3- Ijodiy yordam va sahna jarayonlarida ishtirok etish	A3.01.3- Bosh xoreograf yoki murabbiy ko'rsatmalariga muvofiq sahnada ishlash	Mehnat harakatlari: 1. Bosh xoreograf ko'rsatmalariga mos ravishda sahna harakatlarini bajarish 2. Oddiy sahna elementlari va raqs kombinatsiyalarini sahnada joyida tekshirish va takrorlash

		3. Ijodiy jarayonlarda kichik takliflar berish va sahnani yaxshilashga yordam berish
		4. Sahna chiqishlari va mashg'ulotlar davomida bosh xoreograf ko'rsatmalariga tezkor moslashish
		5. Guruh a'zolarining sahnada bir xil ritm va texnikani saqlashini kuzatish va tuzatishga yordam berish
		Ko'nikma:
		Bosh xoreograf ko'rsatmalariga aniq va tez moslashish
		Sahna elementlari va kombinatsiyalarni joyida tekshirish va mustahkamlash
		Ijodiy yordam berish va kichik takliflar berish
		Sahna jarayonida tezkor moslashish va muammolarni hal qilish
		Guruh a'zolarining ritm va texnik uyg'unligini kuzatish va to'g'rilash
		Bilim:
		Sahna va guruhdagi harakatlarni bosh xoreograf ko'rsatmalariga mos bajarish qoidalari
		Oddiy sahna elementlari va raqs kombinatsiyalarini tekshirish va qayta ishlash prinsiplari
		Ijodiy jarayon va kichik takliflar berish tamoyillari
		Tezkor moslashish va sahnada tezkor qaror qabul qilish asoslari
		Guruh a'zolarining texnik va ritmik uyg'unligini kuzatish usullari
	A3.02.3- Kostyumlar, rekvizitlar va sahna elementlarini oddiy darajada ishlatish	Mehnat harakatlari:
		1. Sahna chiqishi yoki mashg'ulot uchun kerakli kostyumlarni va rekvizitlarni tayyorlash
		2. Rekvizit va sahna elementlarini sahnada xavfsiz va to'g'ri joylashtirish
		3. Oddiy harakatlarda rekvizitlarni va sahna elementlarini qo'llashni mashq qilish
		4. Kostyum va rekvizitlardan foydalanishda boshlang'ich texnik qoidalarni bajarish
		5. Mashg'ulot yoki chiqish davomida rekvizit va sahna elementlarini saqlash va tartibni nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Kostyum va rekvizitlarni sahna yoki mashg'ulotga tayyorlash
		Sahna elementlarini xavfsiz va to'g'ri joylashtirish
		Oddiy harakatlarda rekvizit va sahna elementlarini ishlatish
		Kostyum va rekvizitlardan foydalanish texnikasini qo'llash

		Mashg'ulot yoki chiqish davomida rekvizit va sahna elementlarini saqlash va tartibni nazorat qilish
		Bilim:
		Kostyumlar va rekvizitlarni tayyorlash va joylashtirish tartibi
		Sahna elementlarini xavfsiz va to'g'ri ishlatish qoidalari
		Rekvizit va sahna elementlarining oddiy harakatlarda qo'llanishi
		Kostyum va rekvizitlardan foydalanish bo'yicha boshlang'ich texnik qoidalar
		Rekvizit va sahna elementlarini tartibda saqlash va nazorat qilish tamoyillari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Bosh xoreograf ko'rsatmalariga qat'iy amal qilish mas'uliyati
		2. Kostyum va rekvizitlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish mas'uliyati
		3. Sahna jarayonlarida intizom va xavfsizlikni ta'minlash mas'uliyati
A4.4- Raqs dasturlarini tayyorlash va sahnalashtirish	A4.01.4- Turli janrdagi raqslarni mustaqil tanlash va sahnaga moslashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Raqs janrlarini tahlil qilish va tanlash
		2. Tanlangan raqsni sahna talablari bo'yicha qayta ishlash
		3. Harakatlar ketma-ketligini mustaqil tuzish
		4. Harakatlarni badiiy yechim bilan boyitish
		5. Raqsni musiqa bilan uyg'unlashtirish
		6. Sinov mashqlarini olib borish va kamchiliklarni tuzatish
		7. Sahnaga mos kompozitsion joylashuvni belgilash
		Ko'nikma:
		Raqs janrini mustaqil tanlash va tahlil qilish
		Harakatlarni sahnaga moslashtirish
		Raqsni musiqaga uyg'unlashtirish
		Kichik guruh bilan sinov mashqlarini boshqarish
		Badiiy ifoda vositalaridan foydalanish
		Bilim:
		Raqs janrlarining uslubiy va texnik xususiyatlari
		Raqs kompozitsiyasi va dramaturgiyasi asoslari
		Musiqa ritmi, tempi va xarakterini tahlil qilish asoslari
		Sahnada ishlash qoidalari va texnik talablari
		Jamoaviy ijro psixologiyasi
	A4.02.4- Guruh raqschilari uchun mashq va repertuar	Mehnat harakatlari:
		1. Guruhning texnik darajasi, yosh tarkibi va imkoniyatlarini tahlil qilib, mos mashq bloklarini shakllantirish

	dasturlarini ishlab chiqish	2. Mashq dasturiga kiradigan raqs elementlari va kombinatsiyalarni murakkablik darajasiga qarab tartiblash va ketma-ketlik yaratish 3. Repertuar uchun mos janr va yo'nalishdagi raqslarni tanlab, ularni guruh imkoniyatiga mos ravishda qayta ishlash 4. Mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan tempi, ritm almashinuvlari va texnik topshiriqlarni belgilab, mashq rejasiga kiritish 5. Dastur asosida guruh bilan sinov mashqlarini olib borib, harakatlarni sozlash, takomillashtirish va yakuniy variantni tasdiqlash Ko'nikma: Guruhning imkoniyatlarini mustaqil tahlil qilish Mashq va repertuar dasturini tuzish Raqs janrlarini sahnaga moslashtirish Musiqqa bilan uyg'unlashtirish Bilim: Guruhning texnik va badiiy tayyorgarligi tahlili Mashq va repertuar dasturlari tuzilishi Raqs janrlari va stilistik xususiyatlari Musiqqa va ritm nazariyasi Sinov mashqlarini tashkil etish va sozlash
	A4.03.4- Oddiy sahna effektlari va kostyumlarni tanlashda ishtirok etish	Mehnat harakatlari: 1. Sahnaga effektlari va kostyum variantlarini tahlil qilish 2. Tanlangan effekt va kostyumlarni bosh xoreograf bilan muvofiqlashtirish 3. Kostyum va sahna elementlarining asosiy ishlatilishini mashq qilish 4. Mashg'ulot va sahnaga tayyorgarlik jarayonida yordam berish 5. Oddiy nosozliklarni aniqlash va tuzatishga yordam berish Ko'nikma: Sahnaga effektlari va kostyumlarni tahlil qilish Kostyum va effektlarni bosh xoreograf bilan muvofiqlashtirish Oddiy sahna effektlari va kostyumlarni ishlatish Guruh a'zolariga yordam berish Nosozliklarni aniqlash va tuzatish Bilim: Sahnaga effektlari va kostyumlarning badiiy xususiyatlari Kostyum va sahna elementlarini tanlash mezonlari Sahnaga xavfsizligi va texnik talablari Bosh xoreograf ko'rsatmalari bilan ishlash tamoyillari

	Mas'uliyat va mustaqillik	Oddiy nosozliklarni aniqlash va tuzatish metodikasi
		1. Raqs dasturlari va sahna yechimlarini mustaqil tanlash va moslashtirish mas'uliyati
		2. Guruh mashq va repertuar dasturlarini tashkil etish mas'uliyati
		3. Sahna effektlari va kostyumlarni tanlashda mas'uliyat
A5.4- Guruh raqschilarini tayyorlash va boshqarish	A5.01.4- Mashg'ulotlarni mustaqil rejalashtirish va o'tkazish	Mehnat harakatlari:
		1. Mashg'ulot maqsad va mavzusini aniqlash
		2. Mashg'ulot rejasini tuzish
		3. Mashg'ulot jarayonini boshqarish
		4. Individual va guruh mashqlarini moslashtirish
		5. Natijalarni tahlil qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish
		Ko'nikma:
		Mashg'ulot maqsadlarini aniqlash
		Mashg'ulot rejasini tuzish va amalga oshirish
		Guruh bilan boshqarish va nazorat qilish
		Individual va guruh mashqlarini moslashtirish
		Mashg'ulot natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish
		Bilim:
		Guruhning texnik va badiiy tayyorgarligi
	A5.02.4- Raqs texnikasi va ifoda mahoratini rivojlantirish uchun mashqlar berish	Mashg'ulot rejasini tuzish prinsiplari
		Raqs kompozitsiyasi va sahna dramaturgiyasi
		Guruh bilan ishlash psixologiyasi
		Mehnat harakatlari:
		1. Guruh yoki individual ijrochilar texnik darajasini baholash
		2. Mashq dasturini tayyorlash va moslashtirish
		3. Mashqlarni o'rgatish va boshqarish
		4. Individual va guruh mashqlarini nazorat qilish va tuzatish
		5. Natijalarni baholash va keyingi mashqlarga tavsiyalar berish
		Ko'nikma:
		Guruh va individual imkoniyatlarni tahlil qilish
		Mashq dasturini tuzish va moslashtirish
		Mashqlarni o'rgatish va boshqarish
		Individual va guruh mashqlarini moslashtirish
		Natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish
		Bilim:
		Raqs texnikasi va badiiy ifoda nazariyasi
		Ijrochilarning individual imkoniyatlari va xatoliklarni aniqlash asoslari
		Mashq metodikasi va mashq dasturi tuzish prinsiplari

		Guruh bilan ishlash psixologiyasi Mashg'ulot natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish metodikasi
	A5.03.4- Raqschilar faoliyatini kuzatish va kichik guruhlarini boshqarish	Mehnat harakatlari: 1. Kichik guruh a'zolarining texnik va badiiy darajasini kuzatish 2. Mashq va ijro jarayonini tashkil etish 3. Individual tuzatishlar kiritish 4. Guruhdagi uyg'unlikni nazorat qilish 5. Mashg'ulot natijalarini baholash va takomillashtirish tavsiyalari berish Ko'nikma: Ijrochilarning texnik va badiiy darajasini kuzatish Kichik guruh mashqlarini boshqarish Individual tuzatishlar kiritish Guruh uyg'unligini nazorat qilish Mashg'ulot natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish Bilim: Raqs texnikasi va ifoda asoslari Guruh va individual ijrochilarni tahlil qilish nazariyasi Kichik guruhlarini boshqarish metodikasi Mashg'ulot samaradorligini baholash va takomillashtirish prinsiplari Psixologik va pedagogik bilimlar
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Mashg'ulot va repertuar jarayonini mustaqil boshqarish mas'uliyati 2. Individual va guruh ishini nazorat qilish mas'uliyati 3. Natija va sifatga mas'uliyat
A6.4- Ijodiy jarayonlarda ishtirok etish va mas'uliyatni oshirish	A6.01.4- Konsert yoki chiqish dasturlarida sahna ishlarini muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Sahna chiqishlari ketma-ketligini tekshirib, ijrochilarni o'z vaqtida sahnaga chiqarish jarayonini boshqarish 2. Sahnadagi harakatlar, joylashuv va kirib-chiqishlar bo'yicha ijrochilarga tezkor ko'rsatmalar berish 3. Yorug'lik, ovoz va texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan dastur davomida uzviy hamkorlikni ta'minlash 4. Kostyum, rekvizit va sahna jihozlarining vaqtida tayyor holatda bo'lishini nazorat qilish 5. Chiqish jarayonida yuzaga keladigan kichik texnik yoki ijro muammolarini tezda baholab, moslashuvchan tarzda yechim qo'llash Ko'nikma: Sahna jarayonlarini boshqarish va muvofiqlashtirish Texnik jamoa bilan samarali aloqa qilish

		Sahnadagi vaziyatlarga tezkor moslashish Ijrochilarni sahnaga tayyor holatda boshqarish Tashkiliy jarayonlarda mas'uliyat bilan ishlash Bilim: Sahna jarayonlari va konsert tashkiloti asoslari Yorug'lik va ovoz texnikasi Rekvizit, kostyum va sahna jihozlarining funksiyalari Favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish tamoyillari Ijrochilar psixologiyasi va jamoa bilan muloqot asoslari
	A6.02.4- Loyihani sifatli va vaqtida bajarilishini ta'minlash	Mehnat harakatlari: 1. Mashg'ulotlar, sahna tayyorgarligi va chiqishlarga oid jarayonlarni reja bo'yicha monitoring qilib, belgilangan muddatlarga rioya etilishini nazorat qilish. 2. Ijrochilar, texnik xodimlar va yordamchi jamoa o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlab, bajarilish holatini muntazam tekshirib borish. 3. Jarayon davomida yuzaga keladigan texnik yoki ijodiy muammolarni baholab, ularni tezkor bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish. 4. Rekvizit, kostyum, musiqa va sahna jihozlarining sifatini ko'zdan kechirib, kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatishni tashkil etish. 5. Chiqish kuniga qadar barcha tayyorgarlik bosqichlarining sifat standartlariga mosligini ta'minlash va yakuniy nazoratni amalga oshirish. Ko'nikma: Loyiha jarayonlarini rejalashtirish va vaqtni boshqarish Jamoani boshqarish va vazifalarni samarali taqsimlash Muammolarni tezkor aniqlash va amaliy yechim topish Sifat ko'rsatkichlarini baholay olish Muloqot va koordinatsiya Bilim: Ijodiy loyiha boshqaruvi asoslari Sifat nazorati tamoyillari Jamoa bilan ishlash va muvofiqlashtirish qoidalari Risklarni aniqlash va oldini olish usullari Sahnaga oid texnik talablar
	A6.03.4- Kichik ijodiy guruhlar bilan hamkorlik qilish	Mehnat harakatlari: 1. Kichik ijodiy guruh a'zolari bilan raqs g'oyasi, sahna yechimi va vazifalar bo'yicha kelishilgan reja tuzish.

		2. Har bir ishtirokchining ijodiy takliflarini tinglab, ularni umumiy kompozitsiyaga mos tarzda qayta shakllantirish.
		3. Mashg'ulotlar jarayonida guruhning texnika, ritm va harakat uyg'unligini nazorat qilib, zarur ko'rsatmalar berib borish.
		4. Ijodiy jarayon davomida guruh a'zolari o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni mustahkamlaydigan sharoit yaratish.
		5. Sahna harakatlari, joylashuv va kompozitsiya bo'yicha kelishilgan qarorlarni amaliy mashqlarda sinab ko'rib, kerak bo'lsa, o'zgartirish kiritish
		Ko'nikma:
		Kichik guruh bilan samarali muloqot qilish
		Ijodiy takliflarni tahlil qilish va ular bilan ishlash
		Jamoa mashg'ulotlarini boshqarish
		Kelishilgan qarorlarni amaliyotga tatbiq etish
		Hamkorlik muhitini yaratish
		Bilim:
		Ijodiy jamoa bilan ishlash psixologiyasi
		Kollektiv ijod jarayonlari asoslari
		Raqs kompozitsiyasi va sahna harakatlarining asosiy qoidalari
		Mashg'ulotlarni tashkil etish va guruhni boshqarish tamoyillari
		Konfliktlarni oldini olish va hal etish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Ijodiy jarayonlarni o'z vaqtida va sifat talablari asosida bajarilishini ta'minlashda mas'uliyatli bo'lish, kichik guruhlar faoliyatini mustaqil nazorat qilish va jarayondagi uzilishlarni bartaraf etishda tashabbus ko'rsatish
		2. Bosh xoreograf topshiriqlarini to'liq va aniq bajarish bilan birga, sahna tayyorligi, rekvizitlar holati va mashg'ulotlar sifatiga doir qarorlarni mustaqil ravishda qabul qila olish
		3. Kichik ijodiy guruhlar bilan hamkorlik jarayonida intizomni, ish muhitini va jamoaviy uyg'unlikni saqlash uchun shaxsiy mas'uliyatni namoyish etish hamda kerakli o'zgarishlarni mustaqil kiritish
A7.5- Murakkab raqs dasturlarini yaratish va sahnalashtirish	A7.01.5- Turli janr va uslublardagi raqslarni professional darajada tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Raqs janri, uslubi va dramatik yechimga mos holda murakkab harakat kombinatsiyalarini mustaqil ishlab chiqish va kompozitsiyaga joylashtirish
		2. Professional texnika talablarini hisobga olgan holda harakatlarning anatomik to'g'riligi, ritmik aniqligi va ifodaviyligini tahlil qilish hamda takomillashtirish

		3. Raqsning syujet, kayfiyat va obraziga mos ravishda sahna harakatlari, ritmik o'tishlar va plastika yechimlarini yaratib, ularni amaliy mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazish
